

**ANDIJON SHAHRIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR JARAYONIDA
KULOLCHILIK**

Abdukaxxorova Gulmiraxon Muzaffar qizi
Andijon davlat universiteti Amaliy san'at badiiy kulolchilik
ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada hozirgi va qadimgi kulolchilik davrlari, kulolchilik san'ati tarixi, uning vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kulolchilik, sopol, bezak, loy, neolit davri, badiiy bezatish usullari, kulolchilik maktablari.

Introduction

Andijon shahri moddiy madaniyatini tarixini o'rganish XIX asr oxirida boshlangan. Andijon shahrini taqqiq etishda arxeolog M.Ye.Masson, V.D.Jukovlar tomonidan boshchilik qilgan ekspeditsiyalar natijalariga ko'ra ko'plab qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishdilar. Andijonni o'rganishga etnograf A.K.Pisarchik ham katta hissa qo'shgan. Dastlab u 1938 yilda O'zbekiston qadim yodgorliklari va san'at namunalarini qo'riqlash qo'mitasi topshirig'iga ko'ra izlanishlar olib bordi. G'.Dadaboyev, B.Abdulg'oziyeva, B.Matboboyevlar ham samarali faoliyat olib bordilar.

O'zbekiston raspublikasi Arxeologiya instituti va Z.M.Bobur nomidagi Xalqaro jamoat fondi tomonidan maxsus tashkil teilgan Andijon Arxeologiya otryadi B.X.Matboboyev rahbarligi ostida 2000-2012 yillarda o'tkazildi va hozirda ham davom ettirilmoqda. Tizimli har tomonlama tahlil asosida XX asr boshidagi shahar xaritalarida 8 ta me'moriy-arxeologik obyektlar, 11 shahar qabristonlari, 39 ta masjid qayd etildi. 2000-2012 yillarda Andijonda quyidagi arxeologik izlanishlar olib borildi:

1. Chordonadagi arxeologik qazishmalar (2000-2003).
2. Sarvontepadagi tadqiqotlar (2001-2003, 2007)
3. Ark ichi, shahristondagi arxeologik izlanishlar (2001-2002, 2006).
4. Shahriston devorining (janubiy va g'arbiy) tashqarisida, ya'ni rabodda olib borilgan qidiruv ishlari (2007-2012)

Chordonada 2000 yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda topilgan kulolchilik buyumlari V davrga ajratilgan.

I davr. Milodiy asr bo'sag'asiga qadar bo'lgan davrga oid kulolchilik mahsulotlari sopol buyumlar topilgan. Sopol idishlar yupqa, jarangdor, yaxshi toblab pishirilgan, ikki tomoniga quyuq qizil, ba'zan esa yaltiroq angob berilgan. Asosan kosa, tovoq, ko'za kabi idishlar xillari uchraydi. Ushbu kulolchilik buyumlari milloddan avvalgi I asrlarga mansub Sho'raboshot, Simtepa, G'ayrattepa yodgorliklaridan topilgan kulolchilik buyumlariga o'xshashligi N.G.Gorbunova tomonidan tasniflangan.

II davr. Milodiy birinchi asrlar kulolchiligi ko'plab ashyoviy manbalar bilan ifoda etilgan. Idish-tovoqlar usti qizil, qoramtir, jigarrang angob bilan qoplangan. Zuvala qilishga mo'ljallangan loy yaxshilab qorilgan, ammo humdonda bir maromda pishirilmagan. Topilgan kulolchilik buyumlar orasidan ilk bor tirnab naqsh tushurilgan buyumlar topilgan. Kulolchilik charxida tayyorlangan kosa shunday uslubda ishlangan hamda ikki tarafga to'q jigarrang angob berilgan holda pardoqlash, yaltiratish izlari mavjud. Yana bir kosani tashqi tomoniga qora, ichki tomoni esa angob chiziqlar tortilib bezatilgan. Mazkur sopol idishlari jarangdorligi, va sopol devorlarining yupqaligi bilan ham shu davr kulollarining maxoratini ifodalaydi. Idishlar guruhi qazishmada eng ko'p qayd etilganlar sirasiga kiradi va "qizil angoblangan kulolchilik mahsulotlari davri"ga taalluqlidir.

III davr. III-IV asrlar kulolchiligi oldingi davrdan deyarli farq qilmaydi. Mazkur davrga oid kulolchilik buyumlarida ham tirnab bezak berish usulidan keng foydalanilgan. Bezak turlari sifatida buyum yuziga geometrik, ba'zan esa antropo-zoomorf shakllar ishlatilgan. Kulolchilik idishlari orasida shakli-shamoyili turli xil bo'lgan likobchalar, xurmalar ajralib turadi. Ular orasida tirnab bezak berilgan tuvak va o'tkir asbob bilan yonilgan sopol idishning jimjimador dastasi ham diqqatga sazovordir. Mazkur davr kulolchilikning gurkirab yashnagan davri hisoblanadi.

IV davr. V-VI asr kulolchiligi ham yetarlicha miqdorda aniqlangan. Bu davrga xos kulolchilik buyumlari ham ilgargi davrlarga o'xshashliklari mavjud. Bunga misol qizil angobli idishlardan xurma, likob, kosa, xumlarni aytishimiz mumkin. Ko'za bog'ziga tashqi tarafdan uchlar pastkga qaratilgan uchburchak shaklda galma-gal takrorlanuvchi tirnab ishlangan bezaklar solingan. Topilmalar orasidan dag'al ishlangan qozon va yagona nusxada ham topilgan. Bu kompleksda turli idishlarning tag qismi ko'plab uchraydi. Chordonadagi materiallar orasida angob hoshiyali idishlar va dastali ko'zalar uchramaydi.

V davr. VII-VIII asrlar kulolchiligiga mansub idishlar sirtiga ayrim xollarda och angob berilgan, ba'zi joylarida angoblar o'chib ketgan. Topilmalar orasida xalqasimon dastali ko'za, qozon, tuvak, xillari uchraydi. Devorlari ichkariga yengilgina qayrib ishlangan kosa ham topilgan. Ayrim jixatlaridan yanada oldingi davrga xos bo'lgan ikki sopol idish ham uchraydi. Ularning biriga charhda xurmachaga o'xshab shakl berilgan katta tuvak bo'lsa, ikkinchisi dastgohda ishlangan sirti notekis yirik ko'za.

Sarvontepa yodgorligi

Sarvontepa yodgorligi Andijon Eski shaharining shimoliy-g'arbiy qismida, Tutzor (sobiq Telman) va Savontepa (sobiq Sujoat) ko'chalarining kesishmasi yonida joylashgan. Sarvontepa yuqorida nomlari keltirilgan ko'chalarning qurilishi davrida qirqilgan va xususiy uylarning qurilishi vaqtida qattiq shikastlangan. Uning katta qismi aykka tartibdagi imoratlar ostida qolib ketgan.

Yodgorlikning yuqori qatlamlari 1976 yilda B.Abdulgaziyeva tomonidan tadqiq etilgan hamda I-II asrlar va ilk o'rta asrlarga oid materiallar qayd etilgan (materiallar e'lon qilinmagan, Andijon viloyati o'lkashunoslik muzeyida saqlanadi).

Sarvontepaning quyi qatlamlarini o'rganish uchun yodgorligining sharqiy etagida 2001 yilda olib borilgan izlanishlar natijasida ko'plab kulolchilik buyumlari topildi. Miloddan avvalgi VI-

V asrlarga bo'lgan sopol idishlar majmuasi Eylaton-I madaniyatiga taluqli ekanligi ma'lum bo'ldi. Topilgan sopol buyumlar mutaxassislar tomonidan chuqur o'rganildi.

Kosa – Kulolchilik charxida tayyorlangan. Ichki qismi oq sir bilan qoplangan. Tashqi tomonida oq rang ustiga moviy-qora naqshlar qoplangan. Qorishmasi va pishitilishi yaxshi. Yumaloq shaklda, tagligi doirasimon, biroz botiq ko'rinishda. Shu kosaga tayyorlanish texnologiyasi ham o'xshash bo'lgan ko'plab kulolchilik buyumlari topildi. Mazkur sopol buyumlar davriga mansub qo'lda tayyorlangan tovoqning loyi zich ko'rinishda, pishitilishi ham maqbul darajada, har ikki tomoniga jigarrang angob berilgan. Yumaloq shaklda va notekis yuzaga ega. Shunday tovoq, faqat bir oz kattaroq o'lchamdagisi ham aniqlangan.

Ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha yopma qo'lda tayyorlangan sopol buyumlar ham talaygina topilgan. Shulardan biri yopma qo'lda tayyorlangan tog'ora va qozonlardir. Yopma qo'lda tayyorlangan qozon – qorishmasida dag'al ravishda maydalangan sopol aralashmasi bor, pishitilishi ham bir tekisda. Yumaloq shaklda. Yuqori qismi tomon torayib boradi. Gardishi keskin darajada qayrilgan. Uning yuqori qismi yassi. Yopma qo'lda tayyorlangan tog'ora – yopishtirilgan dastali, har ikki tomonidan to'q sariq-qizil angob bilan qoplangan. Yumaloq shaklda, yuqoriga qarab torayib boradi.

Topilmalar ichida ko'plab qo'lda yopma tayyorlangan sopol buyumlari mavjud, ular orasida aloxida ko'rinishga eglari ham bor. Topinish va sig'inish bilan bog'liq bo'lgan idish – yopma qo'lda tayyorlangan, yuqoridan tuxumsimon shaklda, quyish joyi yapaqi jo'mrak yasalgan va to'rta oyoqqa ega. Ikki tomoni qizg'ish tusdagi angob bilan qoplangan. Qorishmasiga dag'al maydalangan sopol aralashgan. Parchasi zich, pishitilishi bir tekisda. Ichki devorlarida qurum izlari bor. Gul solingan yopma qo'lda tayyorlangan kosa – tuproq qorishmasi qalin, pishitilishi odatiy darajada. Och fonda qiya to'r ko'rinishda to'q jigarrang naqshi bor, hoshiyasi uchburchak shaklda.

Sorvontepa hududida mazkur davrga tegishli qo'lda va kulolchilik charxida tayyorlangan kulolchilik buyumlari asosan uy ro'zg'or buyumlari sirasi kirib, ularni shu davr texnologiyasi asosida tayyorlashgan. Sopol buyumlari orasidan tog'ora, tovoq, tuvaklar, kosa, ko'zalarni uchratish mumkin. Buyumlar simmetrik tarzda va ularning sirtiga mayda to'rli, uchburchak shakllar bilan turli rangdagi angoblar bilan bezatilgan.

2002 yilgi tadqiqotlar. O'tgan arxeologik mavsumda qayd etilgan Eylaton kompleksining hududiy sarhadini aniqlash uchun yodgorlik atrofida 40-50 metr radiusda shurf solindi. Oli borilgan izlanishlar natijasida dastlab Eylaton madaniyatiga mansub bo'yoq bilan gul solingan yopma qo'lda tayyorlangan kosa bo'lagi topildi. Unga romb shaklidagi katak-katak qizil rangli naqshlar bitilgan bo'lib, gardishining chetiga ikki yo'llik xoshiya tortilgan.

Topilmalar aralashtirilib yuborilgan. Bu yerda sopolning 10 ta parchasi topilgan. (3 tasi yopma qo'lda tayyorlangan, 7 tasi kulolchilik charxida, shu jumladan, 4 tasi sirlangan). Barcha topilmalar qadimgi va o'rta asrlarga mansub. Qadimgi idishlar yopma qo'lda tayyorlangan kosa, tog'ora texnologik belgilariga loyning tarkibi, yuzasining rangi, tayyorlash usuliga ko'ra eramizdan avvalgi IV-III asrlarga oid. Ayrimlari tiralib tushirilgan naqsh solingan va angob bilan qoplangan idish eramizning birinchi asrlariga tegishli bo'lishi mumkin. O'rta asr sopol idishlari turli kattalikdagi tovoqlarni o'z ichiga oladi.

Bu izlanishlar chog'ida topilgan, kulolchilik charxida tayyorlangan. Ikki tomoni sirlangan. Har ikki tomonida chiziq (yashil, ko'k, jigarrang) ko'rinishidagi bezaklar mavjud. Tashqari tomonida

ko'k chiziq o'rniga o'simliklarga xos bo'lgan bezak berilgan. Bu topilmalar orasida sirlangan to'qinsimon naqsh tushirilgan yana bir tovoq ham bor. Sopol buyumlar orasida tuvak, tovoq, manqaldon, qozon va kosalar ham joy olgan. Ularni tayyorlanish texnologiyasi o'ziga xosdir. Bezaklari buyumning ichki va tashqi qismlariga aloxida e'tibor berilganini ko'rsatib turibdi.

Sarvontepadaolib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg'ona uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi ma'lumotlar olindi. Muammoni mufassal tadqiq etish borasida tegishli madaniy qatlamlardan 2 ta – ilk va qadimgi arxeologik kompleksni ajratib olishga muvaffaq bo'lindi.

Ilk arxeologik kompleks

Yopma qo'lda tayyorlangan va kulolchilik mahsulotlaridan iborat kulolchilik kompleksi alohida diqqatga sazovor. Ular orasida kosa, tuvak, tovoq va xurmachalar ko'rinishidagi yopma qo'lda tayyorlangan buyumlari ko'proq (85%) uchraydi. Yopma qo'lda tayyorlangan kosalarning ikkala tomoni qizil angob bilan qoplangan. Yopma qo'lda tayyorlangan tovoqlarning ham bir yoki ikki tomoniga qizil angob berilgan. Tuvaksimon idishlarga ham qizil angob berilgan. Yopma qo'lda tayyorlangan buyumlar orasida aftidan sig'inish-topinish maqsadida foydalanilgan to'rt oyoqli novli idishni aytib o'tish zarur. Yassi shakldagi mazkur idishning oyoqlari silindrik ko'rinishga ega. Jumladan, guldor gardishi qayrilgan yopma qo'lda tayyorlangan kosa. Bezaklar jigarrangda to'rsimon shaklda uchburchak hoshiyali qilib ishlangan. Kulol charxida tayyorlangan buyumlar esa topilmaning 15% ini tashkil qiladi.

Keying arxeologik kompleksda avvalgi kompleksda bo'lgani kabi, ikki turga yopma qo'lda tayyorlangan va sopol buyumlar 79% va kulolchilik charxida tayyorlangan sopol buyumlar 21% ni tashkil qiladi. Yopma qo'lda tayyorlangan "g'urrasimon" dastali idishlar kosa, tovoq, xumlar bilan ifodalanadi. Ko'zalarining bo'g'zi ingichka, gardishi esa qayrilgan va angobsiz. Mazkur kompleksda turli hajmdagi asosan tashqi tomonidan angob qoplangan tovoqlarham qayd etilgan. Bular jumlasiga yopma qo'lda tayyorlangan dumaloq, gardishi keskin qayrilgan (aftidan u dastak vazifasini ham bajargan), yuqori qismi torayib boruvchi qozonni aytib o'tish mumkin (24-rasm, 24). Kulolchilik charxida tayyorlangan idishlar qatoriga turli tuvaklarni kiritish joiz (24-rasm, 1,4,5,7,8,10). Eylaton II kompleksida, shuningdek, gardishi qayrilgan, bo'g'zi ingichka ko'zalar qayd etilgan (24-rasm, 2,6). Kulol charxida tayyorlangan mo'jazzgina tovoqni ham shular jumlasiga kiritish mumkin. Keyingi kompleksdan topilgan aksariyat idishlarning tub qismi yassi bo'lib, turli tusdagi qizil angob bilan qoplangan.

Andijonda ilk bor Eylaton madaniyatiga xos ikki kompleks -Eylaton I va Eylaton II kashf qilindi. Kulolchilik kompleksi yopma qo'lda tayyorlangan va kulol charxida tayyorlangan idishlardan iborat. Umumiy topilmaning 82.2%i yopma qo'lda tayyorlangan idishlar bo'lsa, 17.8%i kulol charxida tayyorlangan buyumlarni tashkil etadi. Yopma qo'lda tayyorlangan sopol buyumlari loyga qum va shamot qorishmasidan yasalgan, sopolagi zich, sindirilganda ikki xil rangda, bir maromda pishitilgan. Ichki tomonida mato izlari mavjud idishlar ham uchraydi.

Sarvontepada olib borilgan qazishmalar natijalariga tayanib, quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

1. Ilk kompleks (yoki Eylaton I). Unda qayd etilgan topilmalar qator arxaik xususiyatlarga ega. Jumladan, topilmalarning aksariyatini yopma qo'lda tayyorlangan kulolchilik mahsulotlari tashkil etashi, bo'yoq bilan naqshindor va bo'yalgan idishlarning mavjudligi; solingan naqshlar turlari turli ranglarda ishlanganligi, idishlarning ichki tomonida mato izlari mavjudligi hamda ayrim shakllari Chust madaniyatiga o'xshashligi kabilar. Ilgari Eylaton madaniyati

komplekslarida mavjud bo'lmagan "g'urrasimon" dastali idishlar (23-rasm, 9-11) va tuvaksimon shakldagi buyumlar (23-rasm, 16,18) topilgan bo'lib, ular ko'proq Chust madaniyatiga xosdir. Kungay sag'anasining Eylaton madaniyati ilk yodgorliklari qatoriga kirishni inobatga oladigan bo'lsak, Eylaton I kompleksi sanasini eramizdan avvalgi VI-V asrlarga taluqli, deyishimiz mumkin.

2.Keyingi kompleks (yoki Eylaton II) Ushbu bosqichda kulolchilik kompleksida ayrim o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, kulol charxida tayyorlangan mahsulotlarning soni ortdi. Idishlar tubi aksariyat hollarda yassi ishlangan (24-rasm, 11-13, 25). Ko'zalar (24-rasm, 2, 6), tuvaklar, "g'urrasimon" dastali idishlarning yangi shakllari paydo bo'ladi. So'ngi kompleksda qayd etilgan ashyolarni S.Qudratov tomonidan Eylaton shahar xarobasida olinganlar bilan qiyoslash mumkin. Bular xususan, tuvaklar, tovoqlar, ko'zalardir.

Mazkur kompleksdan topilgan ayrim kulolchilik buyumlari arxaik ko'rinishga ega. Yu. A. Zadnepetrovskiy tomonidan olingan topilmalar orasida bo'yalgan va naqsh berilgan idishlar mavjudligi bois mazkur kulolchilik kompleksini eramizdan avvalgi V-VI asrlar bilan izoxlash mumkin. S.Qudratov tomonidan Eylatonda 1990 yillarda olibborilgan izlanishlar davrida kulolchilik xumdonidan topilgan buyum qoldiqlari orasida naqsh ishlangan birorta ham buyum parchasi topilmagan.

Eski shahardagi Ark ichi, Shahriston, qo'shtepa va boshqa yodgorliklar

Andijonning tarixiy qismi to'g'risida ma'lumotlar olish maqsadida 2001-2002 yillari Eski shahr hududida qazishma ishlari olib borildi. Oldingi tadqiqotchilar tomonidan mazkur hududda asosan V-VII, X-XII va XV-XIX asrlarga oid ma'lumotlar olingan. K. Pisarchik (1956), V. D. Jukov (1951), S. Jalilov (1981), G. Dadaboyev (1975) va b. Abdulgaziyeva (1981) kabi tadqiqotchilar tomonidan muhim ma'lumotlar taqdim etilgan.

Ark ichida olib borilgan izlanishlar maqsadi – ark mudofaa devorlari to'g'risida yangi ma'lumotlar olishdan iborat edi. Shundan kelib chiqib Tashkilot ko'chasidagi 41- va Ark ichi ko'chasidagi 42-uyalar oralig'ida arxeologik qazishmalar olib borildi. Devorlarning ichki tomoni yaxshi saqlanib qolgan bo'lsa ham unda so'ngi o'rta asrlarda kulol charxida tayyorlangan idish parchalari oz miqdorda topildi. Parchalarning ayrimlari moviy va yashil rangda sirlangan. Demak, Ark ichidagi qazishmalar natijasida olingan ashyolar XIV-XVI asrlar bilan belgilash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. A. Nozilov O'rta Osiyo dizayni tarixidan Toshkent "O'zbekiston" 1998
2. M. K. Rahimov O'zbekiston badiiy keramikasi Toshkent 1961
3. L. Jadova Современная керамика Узбекистана 1963
4. С. С. Булатов, М. О. Аширова Амалий санъат қисқача луғати 1992
5. М. Sh. Mannonova "O'zbek kulolchilik terminologiyasi" dissertatsiya
6. G.Shatskiy. Koyalardagi kadimgi rasmlar. T.; 1973.
7. С.Булатов. "Халқ таълими" журнали. Т.; 1998, 1-сон.